

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.Xojimamatov</b>	
Globallashuv sharoitida musiqiy qadriyatlarning estetik ta'sirchanligining o'zgarib borishi va qadrsizlanishi jarayoni .....	442
<b>B.S.Sobirov</b>	
Aktyorlik faoliyatini shaklantirishda aktyorlik san'ati xususiyatlari .....	448
<b>D.A.Yuldasheva</b>	
Yangi O'zbekiston sharoitida madaniyat va san'at sohasi rivojining takomillashuvi .....	451
<b>I.I.Qirg'izov</b>	
Nomoddiy madaniy meros tarkibiga kirgan shashmaqom janiriga aksiologik munosabatning yuksalishi .....	455
<b>I.T.Yuldashev</b>	
Jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atinig o'mni va ahamiyati .....	459
<b>L.E.Tursunova</b>	
Yangi O'zbekistonda yoshlar estetik madaniyatini milliy musiqa tarbiyasi asosida rivojlantirish vazifalari .....	462
<b>M.Achilidiyeva</b>	
O'zbek musiqa san'ati rivojining tarixiy takomil bosqichlari va yo'llari .....	468
<b>N.X.Djalalova</b>	
Musiqiy madaniyat-yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda muhim omillardan biri sifatida ...	473
<b>N.R.Mansurova</b>	
Raqamli texnologiyalar vositasida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarini rivojlantirishning texnologik asoslari .....	478
<b>O.R.Soliyev</b>	
Barokko davrida san'atning o'ziga xosligi .....	488
<b>R.A.Orziboyev</b>	
Milliy musiqamizga doir Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlari tahlili .....	491
<b>R.J.Soxibov</b>	
Naqqoshlikda kompozitsiya va uning qo'llanilishi .....	495
<b>A.B.Sulaymanova</b>	
The importance of modern innovative pedagogical technologies in teaching engineering graphics .....	500
<b>U.T.Isakov</b>	
O'zbek xalqi musiqa madaniyatining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan o'zaro aloqadorligi .....	503
<b>Z.A.Boboyeva</b>	
Yoshlarning badiiy tasavvuri va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda tasviri san'atning o'rni .....	508
<b>J.Sh.Muydinov</b>	
O'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda musiqa mashg'ulotlarining ahamiyati .....	511
<b>N.M.Madaminov</b>	
Oliy ta'lim tizimida bo'lajak tasviri san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishning ahamiyati .....	515
<b>M.T.Yunusaliyev</b>	
Akvarel texnikasida noan'anaviy yondashuv .....	518
<b>D.Q.Oxunova, S.Sh.Hakimova</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiya va metodlari .....	524
<b>D.K.Rafikova</b>	
O'quvchilarni kasbga yo'naltrishning pedagogik zaruriyati .....	528
<b>S.H.Mamajonov</b>	
Amir Temur mohir strategik .....	533
<b>D.M.Xolikova</b>	
Talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	536
<b>O.S.Usmonova</b>	
1-sinf o'quvchilarini mnemotexnika yordamida chiroyli yozishga o'rgatish .....	544



УО'К: 792.028.85.33

## AKTYORLIK FAOLIYATINI SHAKLANTIRISHDA AKTYORLIK SAN'ATI XUSUSIYATLARI

### ОСОБЕННОСТИ АКТЕРСКОГО ИСКУССТВА В ФОРМИРОВАНИИ АКТЕРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

### FEATURES OF THE ART OF ACTING IN THE FORMATION OF AN ACTING CAREER

**Sobirov Bahodir Sotvoldiyevich**   
Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi

#### Annotatsiya

*Maqolada aktyorlik san'ati xususiyatlari, aktyor so'ziga tarif, inson ma'nnaviyatini yuksaltinishdag'i ahamiyati, aktyorlik san'atini qadimdan ijro etib kelinayotganligi, aktyorlik san'ati xarakat asosiga qurilganligi, muallif olg'a surgan g'oya va fikrlarni aktyor ham tengma-teng baham ko'rishi, o'z vujudi, jussasi orqali dramaturg qiyofalarini ifodalashl, ijtimoiy muammolarini namoyon qiluvchi ijodkor shaxs ekanligi, dramaturg bergen holat va matnlar asosida aktyor o'zining jismoniy va ruhiy tabiat bilan badil shahna qiyofasini yaratish olishi, rejissyor va aktyorning asar ishlash jarayonidagi uyg'unlashuvi, kechinma va namoyish maktablarini puxta egallagan bo'lisligi kabi xususiyatlari haqida ma'lumotlar batafsil yoriltiladi.*

#### Аннотация

*В статье рассматриваются особенности актерского искусства, определение слова актер, его значение для поднятия духовности человека, то, что актерское искусство давно исполняется, что актерское искусство строится на основе действия, что идеи и мысли, выдвинутые автором, в равной степени разделяются и актером, что он выражает через свое тело, через свое тело образы драматурга, является творческой личностью, выражающей свои социальные проблемы, драматург на основе данных обстоятельств и текстов подробно освещаются такие характеристики, как способность актера создавать художественный сценический образ со своей физической и психической природой, гармонизация режиссера и актера в процессе работы над пьесой, владение школами импровизации и демонстрации.*

#### Abstract

*The article examines the features of acting, the definition of the word actor, its meaning for raising human spirituality, the fact that acting has been performed for a long time, that acting is based on action, that the ideas and thoughts put forward by the author are equally shared by the actor, what he expresses through his body, through his the body of the playwright's images is a creative person expressing his social problems, the playwright, based on these circumstances and texts, highlights in detail such characteristics as the actor's ability to create an artistic stage image with his physical and mental nature, the harmonization of the director and actor in the process of working on the play, possession of schools of improvisation and demonstration.*

**Kalit so'zlar:** Aktyor, harakat, so'z, san'at, teatr, sahna, muallif, dramaturgiya, dramaturg, rejissyor, kechinma, namoyish.

**Ключевые слова:** актер, действие, слово, искусство, театр, сцена, автор, драма, драматург, режиссер, прощание, показ.

**Key words:** actor, action, word, art, meatra, stage, author, drama, playwright, director, farewell, screening.

#### KIRISH

Aktyorlik san'ati xususiyatlari haqida so'z ketganda eng avvalo aktyorlik tushunchasini tushinib olishimiz zarur.

Aktyor - bu lotincha so'zdan olingan bo'lib, harakat qiluvchi odam degan ma'noni bildiradi. Unda akt so'zi - harakat demakdir. Harakat asosiga qurilgan aktyorlik sanatining manaviy, marifiy ahamiyati juda katta hisoblanib, uning tarbiyaviy kuchi benihoyadir.

Aktyorning ichki va tashqi texnikasi, inson tabiatining qonunlariga asoslanib, ovozi, jussasidan to'g'ri va unumli foydalangan holda tasavvur olamiga boy, kuzatuvchan, hayotni chugur bilgandagina zalvorli qiyofalar yaratiladi.

## PEDAGOGIKA

Aktyor inson qiyofasiga, ruxiyatiga izchil kirib borishi, uning xarakterini mukammal ochib berishi kerak.

O'zbek teatrining sahnasida kechinma sanatning buyuk namoyandalari bo'lgan, Abror Hidoyatov, Shukur Burxonov, Olim Xo'jaev, Sora Eshonto'raeva, Obid Jalilov, Zaynab Sadrieva, Zaynab Sodiqova, Hamza Umarov va boshqalar o'zlarining yaratgan turfa qiyofalari bilan tomoshabinni larzaga solgan, o'ylatgan, qalbini junbushga keltirgan shaxslardir. Bular haqiqiy sanat namunalarini yaratib, inson qalbida, turli-tuman obrazlari bilan bir umrga muhrlanib qolishgan. Juhon teatri sahnalarida, rus teatr sahnalarida kechinma sanatining ajoyib vakillari mavjud. Ular o'z ijodlari bilan kechinma sanatining maktabini yaratib, o'zlaridan juda katta meros qoldirgan.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Buyuk alloma rejissyor K. S. Stanislavskiy aktyorlik sanatining mohiyatini ochib berishda ikki yo'naliш ya'niy, kechinma va namoyish maktabini aniqlab, hayotda sanatning o'rni va roli, uning estetik tamoyillarini ifodalab asoslab bergan. Unga ko'ra kechinma sanatining asosida hayot haqiqati yotadi. Haqiqiy sanat insonni tarbiyalaydi, dunyoqarashini shakllantiradi. Muallif olg'a surgan g'oya va fikrlarni aktyor ham tengma-teng baham ko'radi, o'z vujudi, jussasi orqali dramaturg qiyofalarini ifodalaydi, ijtimoiy muammolarini namoyon qiluvchi ijodkor shaxs - sanatkorga aylanadi. Barcha sanat turlaridan atkyor ijodi o'zgacha bo'lib, bundagi ijod uning jussasi, ovozi, aql-idroki va tuyg'ularga bog'liqdir. Shu xususiyatlardan kelib chiqqan holda aktyorlik maxoratida quyidagi xulosaga kelish mumkin:

Birinchidan, agar barcha sanat turlarida yaratuvchining ijod mahsuli, o'tib ketgandan keyin ham yashasa (haykaltarosh, rassom, bastakor va boshqalar), aktyor ijodi uning hayotligida yashaydi. Spektakl iじro etilayotgandagina yashaydi. Spektakl tugab parda tortilishi bilan aktyor ijodi tugaydi. Jonsiz va jonli ijroning tafovuti mana shunda. U tomoshabinning xotirasida yashaydi, faqat esda muhrlanib qoladi. Shuning uchun ham aktyor ijodi o'tkinchi.

Ikkinchidan, 'agar barcha sanat turlarida sanatkorlar o'z ijod mahsulini jonsiz narsalardan yaratса va u hamisha har doim o'zgarmasdan bir holatda tursa, aktyor ijodi jonli vujuddan paydo bo'lgani uchun o'zgaruvchanligi, uning ruhiy holatiga, tabiatiga, atrofni o'rab turgan muhidga bog'liqligi bilan farq qiladi.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Aktyorsiz teatrni tasavvur qilib bo'lmaydi. Butun teatr tarixida, qadim-qadimdan niqoblar komediysi bo'ladimi, xalq teatri bo'ladimi, maydonchadagi tomoshalar bo'ladimi barcha-barchasi aktyorlik sanati bilan bog'liq.

Aktyor dramaturg kabi ijodkor sanatkor. Dramaturg bergen holat va matnlar asosida aktyor o'zining jismoniy va ruhiy tabiatini bilan badiiy sahna qiyofasini yarata olsa bu uning katta muvaffaqiyati bo'ladi. Aktyorning bosh maqsadi badiiy qiyofa yaratishdir. Aktyor ijodining o'ziga xos xislati u bir vaqtning o'zida ijod qiladi va ijodga o'zi material hisoblanadi.

U tez tasirlanadi, o'zgaradi, yaratgan qiyofasini takror va takror betakror etishga majbur bo'ladi. Jonli teatrning go'zalligi ham, fazilati ham, boshqa sanat turlaridan tafovuti ham shunda.

Shu xususiyatlarni kelib chiqqan holda aktyor ijodining shakllanishi quyidagi tamoyillarga asoslanadi.

Birinchidan: Aktyor boshqa sanatkorlarga qarama-qarshi o'laroq, tabiatning, ruhiy holatining turg'insizligini hisobga olgan holda hamisha va muntazam mashq qilishga muhtoj shaxsdir. O'z oldiga qo'ygan maqsadni bajarish uchun uning psixo-fizik holati doim ijodiy tayyor turishi kerak. Agar sozanda soatlab o'z asbobi

bilan kuyni mashq qilmasa, raqqosa tinimsiz o'z ustida shug'ullanmasa, hofiz nafas sozlab turmasa, kuni bekor o'tganday, aktyor ham o'z ovozini, jussasini, mahoratini uzlusiz charhlab turishi shart:

Ikkinchidan: Aktyor o'z ijodini chetdan turib kuzatadigan, ijodiy jarayonni charhlaydigan nazorat qilib boradigan, yo'l-yo'riq ko'ssatadigan murabbiy rahbar rejissyorga muhtoj shaxsdir. Rejissyorning fikri, orzu-armonlarini, badiiy reja va niyatlarini, ilmiy salohiyati va hayotiy kuzatuvlarini, tasavvuri, didi va ehtiroslari, barchasini sahna harakati va vujudi orqali keng ko'lama ro'yobga chiqarib namoyish qilib beruvchi bu aktyordir. Aktyor rejissyor irodasiga bo'yusungan materialdir.

**XULOSA**

Olingen natihjalarga ko'ra shuni aytishimiz mumkinki, aktyorlik faoliyatini shakllanishida aktyor o'zida ikki hislat, ya'ni, kechinma hamda namoyish maktablarini o'zlashtirish va shakllantirishi zarur. Haqiqiy sanat insonni tarbiyalaydi, dunyoqarashini shakllantiradi. Ongtuyg'ulariga, ijtimoiy hayotiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Kechinma sanatining asosiy mezoni kishi hayotining ichki dunyosini ochish, rolda inson ruhiyatini yaratish, badiy shakllarda tomoshabinga manaviy ozuqa berish, har bir ijroda odamning ichki ruhiy omillariga singib borishdan iboratdir. Kechinma sanatida qiyofa yaratayotgan aktyor hayotning natijasini emas, balki uning harakatdagi jarayonini ochib berishi va ijod jarayoniga aktyor o'zini baxshida qilishi lozim bo'ladi. Hayotning murakkab chigal muammolarini hal qilishda mahorat ustuvorligi, astoydil mehnat qilish, ter to'kish lozim bo'ladi.

Kechinma sanatida aktyor har gal ijrosida yangi qiyofaga kiradi, butun jarayonni qaytadan vujudidan o'tkazadi. Teatr sanatining jozibasi ham mana shunda. Rolda berilgan shart-sharoit to'g'ri mushohada qilinib, harakat yo'nalishi to'g'ri olib borilsagina hayotiy, tabiiy chiqadi. Aktyorning ichki va tashqi texnikasi, inson tabiatining qonunlariga asoslanib, ovozi, jussasidan to'g'ri va

unumli foydalangan holda tasavvur olamiga boy, kuzatuvchan, hayotni chuqr bilgandagina zalvorli qiyofalar yaratiladi. Kechinma aktyori inson qiyofasiga, ruxiyatiga izchil kirib borishi, uning xarakterini mukammal ochib berishi kerak.

Ana shundagina aktyorning har bir ijrosidagi yaratgan obrazi tomoshabinlar qalbidan joy oladi va aktyorlik san'ati xususiyatlarini keng ko'lamda ochib berishga xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. K.S.Stanislavskiy. «Aktyorning o'z ustida ishlashi». T.Xo'jayev tarjimasi. S.Muhamedov muharrirligida. T. Yangi asr avlodи. 2010.
2. B.Sayfullayev, J.Mamatqosimov. «Aktyorlik mahorati». T.: «Fan va texnologiya». 2012.
3. T.Tursunov. XX aasr o'zbek teatri tarifi. Toshkent. 2010 y.